



XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 15-iyul

VII-29-98-3-52-K/26

Paxtakor tumani

Paxtakor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha to'lov tariflarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo'yilgan.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha to'lov tariflari yuzasidan Paxtakor tumani hokimligining 2026-yil 3-iyundagi 03-116-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,

budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 17-apreldagi 54-sonli hamda Paxtakor tumani hokimligining 2026-yil 3-iyundagi 03-116-sonli xatlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Paxtakor tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha belgilangan tariflar narxi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Adliya bo‘limi, tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi, tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limiga fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov), “Paxtakor hayoti” gazetasi tahririyati (M.To‘xtasheva)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali hamda “Paxtakor hayoti” gazetasida rasmiy e‘lon qilish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**SUVANQULOV
SHOHHASAN
MUHAMMAD O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2026-yil 15-iyuldagi
VII-29-98-3-52-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Paxtakor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman
markaziy ko'chalarida yuridik shaxslardan chiqindilarni tashib ketish
xizmati bo'yicha**

TA'RIFLAR

Mahsulot nomi va qisqacha texnik tavsifi	Turi, markasi, qismi yoki model raqami	O'lchov birligi	Mahsulot birligiga cheklangan narxi (tarif, rentabellik, marja) (QQS siz so'm)	
			Joriy narx (tarif)	Korxonalar tomoni taklif qilingan
Xo'jalik subyektlar (yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlar, korxona- tashkilotlar)dan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati	Qattiq va maishiy chiqindilarni tashib ketish	Kub (m ³)	0	50 000
		Tn (tonna)	0	112 800